1. *O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni. O'zbekiston respublikasi qonuni, 23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son.*
2. *Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qaroriga ilova.*



## ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODI

**Abdul Majid Qabchaq**

Afgʻoniston fuqarolarini oʻqitish talim markazi  
oʻzbek tili va adabiyoti yoʻnalishi talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Alisher Navoiyning hayot yoʻli va ijodiy faoliyati yorqin misollar asosida soʻz boradi.*

**Kalit soʻzlar:** *maʼnaviy kamolot, Xuroson, jahon adabiyoti, Temuriylar saroyi, sheʼriyat, sadoqat, Kobul, Davlatshoh Samarqandiy, chigʻatoy ulusi, Qobuliy, Gʻaribiy, mutafakkir.*

Alisher Navoiy oʻzbek adabiyoti va madaniyati tarixidagi ulugʻ siymolardan biri hisoblanadi. Zamondoshlari uni “Nizomiddin Mir Alisher” deya ulugʻlaganlar. “Nizomiddin” - din nizomi deganidir. Koʻpincha, mansab egalariga nisbatan aytilgan “mir” - amir demakdir. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy- shoir, mutafakkir, jahon adabiyotining yetuk siymolaridan biri, davlat arbobi, faylasuf boʻlgan.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevral kuni Xuroson davlatining poytaxti - hozirgi Afgʻoniston hududidagi Hirot shahrining Bogʻi Davlatxona mavzesida tugʻildi. Otasi Gʻiyosiddin Muhammad - Temuriylar saroyida xizmat qilgan, oʻz davrining obroʻli kishilaridan biri boʻlib, oʻgʻlining tarbiyasi va taʼlimiga jiddiy eʼtibor bergan. Onasi esa Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi ekanligi juda koʻp manbalarda aytiladi.

XV asrning yetuk adabiyotshunos olimlaridan biri boʻlgan Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirot un-shuaro” (“Shoirilar tazkisasi”) nomli asarida Navoiyning otasi haqida “Navoiyning otasi Abdulqosim Boburning ishonchli kishisi Chigʻatoy ulusi ulugʻlaridan edi”, deya qisqacha maʼlumot berib oʻtgan.

Boʻlajak shoirning sheʼriyatdagi birinchi ustozlari togʻasi Mir Sayyid Qobuliy va Muhammad Ali Gʻaribiylar boʻlgan. Navoiy ular haqida “Majolis-un nafaʼis”da, xususan, Qobuliy haqida: “Yaxshi tabʼi bor erdi, turkchada mayli koʻproq erdi...”

deya, G'aribiy haqida esa: "Xush muxovara (xushsuhbat) va xushxulq va dardmand yigit erdi. Ko'proq sozlarni yaxshi chalar erdi. Uni va usuli xo'b erdi. Musiqiy ilmidin ham xabardor erdi..."deya qisqacha to'xtalib o'tgan.

1447-yilda Shohrux Mirzo vafot etadi. Temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt turli ziddiyatlar tug'ilib, yurtda talato'plar boshlanganda kichik bola Alisherning oilasi ham ko'p insonlar qatori yurti tark etadi. Yo'lda yosh Alisher buyuk tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyini uchratadi. Tarixchi Alisher bilan tanishadi, uning ilmi va farosatini olqishlaydi, duo qiladi (bu voqea tarixnavis yozuvchi Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur" qissasida ham keltirilgan). 1452-yili Shohruxning nabirasi Abulqosim Bobur Hirot taxtiga o'tiradi. G'iyosiddin Muhammad Sabzavor shahriga hokim qilib saylanadi, biroq oradan ko'p o'tmay vafot etadi. Bu vaqtda esa Alisher endigina 12 yoshga qadam qo'ygan edi. Abulqosim Bobur Alisher va uning maktabdosh do'sti Husayn Boyqaroni o'z qaramog'iga oladi. 1457-1463-yillarda Navoiy Mashhad madrasalarida ta'lim oladi.

1463-yilda esa Hirotga qaytadi. Bu vaqtda mamlakatda taniqli shoir bo'lib qolgan Alisher Navoiyni Abu Said ta'qib qilib, Hirotidan chiqarib yuboradi. Shoir Samarqandga ketishga majbur bo'ladi. Alisher Navoiy Samarqandda 1465-1469-yilning bahorigacha yashadi, Fazlulloh Abu Lays madrasasida o'qib, turli fanlarga oid bilimlarini yanada chuqurlashtirdi. 1500 yillarda shoirning hayot sharoiti qiyinlashadi. Salomatligi yomonlashadi, biroq u ijoddan to'xtamaydi. 1501-yil 3-yanvarda Navoiy kasallikdan vafot etadi. Hirot xalqi buyuk shoir uchun 7 kun davomida motam tutadi. Hazrat Navoiyning vafotini eshitgan borki, dunyoning barcha tomonlaridan eshitgan, bilgan kishilar oqib keldi.

Shoir ijodiyoti Alisher Navoiy ikki tilda mukammal ijod qilgan. Turkiy tilda "Navoiy", forsiy tilda esa "Foniy" taxalluslarini qo'llagan.

Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosini 4 faslga bo'lish mumkin:

1. Devonlari.
2. Dostonlari.
3. Forsiy tildagi she'riy merosi.

#### 4. Ilmiy-filologik, nasriy va tarixiy asarlari.

Alisher Navoiyning o'zbek tilida yaratgan she'riy merosi asosan "Xazoyin ul-maoniy" devoniga jamlangan. Asar 4 qismdan iborat. Devonning birinchi qismiga "G'aroyib us-sig'ar" ("Bolalik g'aroyibotlari"), ikkinchi qismiga "Navodir ushshabob" ("Yigitlik nodirotlari"), uchinchi qismiga "Badoye' ul-vasat" ("O'rta yosh badialari") va nihoyat, to'rtinchi qismiga "Favoyid ul-kibar" ("Keksalik foydalari") degan nomlar berildi. "Xazoyin ul-maoniy" inson bolasining murakkab va yuksak tafakkuri hamda behisob his-tuyg'ulari bilan bog'liq minglarcha she'r va o'nlaricha she'r turlarini o'z ichiga olgan majmua bo'lib, Sharq adabiyoti tarixida noyob hodisadir. Bu xil majmua Alisher Navoiyga qadar Amir Xisrav Dehlaviy tomonidagina tuzilgan. Ushbu devonga kirgan minglarcha she'rlarni Alisher Navoiy butun umri davomida turli sharoitlarda, har xil sabablar bilan yozgan bo'lib, ular shoir hayoti va u yashagan davr bilan sonsiz-sanoqsiz iplar orqali bog'langan. Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" ga qadar "Ilk devon", "Badoye' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya" devonlarini tuzgan. "Xazoyin ul-maoniy" ana shu 3 devonga kirgan hamda "Navodir ul-nihoya" tuzilgandan keyin yozilgan she'rlar asosida yuzaga kelgan.

Alisher Navoiy butun ijodi davomida turli janr va yo'nalishlarda salmoqli ijod qilgan. Nasrda ham, nazmda ham yetuk asarlar yaratgan. Nasrda Navoiy asosan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy va ilmiy-falsafiy, iqtisodiy yo'nalishlarda qalam tebratgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. *Izzat Sulton. Navoiy haqida ikki maqola. Asarlar. 1-jild.*
2. *Alisher Navoiy asarlari · Alisher Navoiy (Foniy). Sittai zaruriya · Alisher Navoiy g'azallariga sharhlar ... Mukammal asarlar to'plami.*
3. *[Alisher Navoiy \(1441-1501\) - saviya.uz](http://saviya.uz)*

## NAVOIYNING MISRDAN TOPILGAN NODIR ASARLARI QO'LYOZMASI HAQIDA MA'LUMOT

**Xadicha Eshpulatova**

Afg'oniston fuqarolarini o'qitish talim markazi

O'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Hedayatullah Khaliqi**

Afg'oniston fuqarolarini o'qitish talim markazi

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Alisher Navoiyning Misrdan topilgan nodir asarlari qo'lyozmasi haqida aniq manbalarga suyanib ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar:** ma'naviy kamolot, "Xazoyin-ul maoniy", "Majolis-un nafois", she'riyat, sadoqat, Kobul, qo'lyozma, Husayn Boyqaro.*

Alisher Navoiy qalamiga mansub "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", "Majolis un-nafois", "Lisonut-tayr" asarlari nafaqat turkiy xalqlar, balki xorij ahlini ham o'z badiiyati bilan asrlar davomida jalb qilib kelayotgani hech kimga sir emas. "Oila va jamiyat" nashri tadqiqotchi Rustam Jabborovning Navoiyning aksariyatga noma'lum bo'lgan bir to'plami borasidagi izlanishlari haqida maqola chop etdi. Navoiyning ijodiy faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u tartib bergan ilk devon "Badoyi' ul-bidoya" hisoblanadi. Xuddi shu devonning debochasida "...xaloyiq arosida ming bayt — ikki ming bayt ortug'roq-o'ksukrakkim o'zlari jam' qilib erdilar, bag'oyat mashhur bo'lib erdi", deydi. Ya'ni o'zidan avvalroq uning ixlosmandlari 1000-2000 bayt she'rini to'plam holiga keltirishganiga ishora qiladi. Bu to'plam "Ilk devon" nomi bilan adabiyot olamida mashhur. Mazkur qo'lyozma hozirda Rossiya Milliy kutubxonasida, Sankt-Peterburgda saqlanadi. Ammo shu paytga qadar xuddi shu taxlitda, taxminan o'sha paytlarda, ya'ni Navoiyning muxlislari to'plab, tayyorlagan yana bir nodir manba borligini ko'pchilik bilmasdi.

Ushbu qo‘lyozma haqida ilk ma‘lumotlar 1935-yilda nashr etilgan Qohira kutubxonasidagi rasmi qo‘lyozmalar fehrisida uchraydi. Qo‘lyozmaning qanday qilib Misrga borib qolganligi haqida aniq ma‘lumotlar yo‘q. Mazkur qo‘lyozma navoiyshunos olim Aftondil Erkinov tomonidan aniqlangan va ayni paytda har taraflama tadqiq qilinmoqda. Ushbu davlatda asrlar davomida bir qancha turkiy sulolalar (mamluklar, tuluniylar, usmoniylar va h.k) hukmronlik qilganini hisobga olsak, Misrda turkiy adabiyotga hech bo‘lmaganda saroy muhitida qiziqish katta bo‘lgani o‘z-o‘zidan ravshanlashadi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari bir nusxasi aynan Qohiradan topilganligi ham bejiz emas. Shunday ekan, Navoiyning oqqo‘yunlilar davrida tuzilgan devoni Misrdan topilganligiga ajablanmasa ham bo‘ladi. Devon xotimasidagi ma‘lumotlarga e‘tibor qaratsak, u 876-yili Rajab oyining 12-kuni (1471-yil 24-dekabr) ko‘chirilgan. Bu paytda Navoiy hali 30 yoshli yigit edi. Devon navqiron shoirning kechinmalarini anglashga yo‘l ochadi. Bu nodir topilmaning yana bir qimmatli tomoni uning Abdurahim Xorazmiy ismli shaxs tomonidan ko‘chirilganidir. U oqqo‘yunlilar davlatida nom chiqargan xattotlar sulolasining atoqli vakili edi. Uning otasi Abdurahmon va inisi Abdulkarimlar ham o‘z davrining xushnavis xattotlari sifatida nom chiqarishgan.

Devonni ko‘chirgan Abdurahim Xorazmiy o‘z davrida she‘riyatda ham dovrug‘ taratgan, Anisiy taxallusi bilan she‘rlar yozgan. Hazrat Navoiy ham “Majolis un-nafois”da Anisiy ismli shoir haqida ma‘lumot berib o‘tsa-da, bu shoir aynan Abdurahim Xorazmiy emasligi aniqlangan. Biroq xorazmlik ota-bola xattotlar hirotlik mashhur xattot Sultonali Mashhadiy bilan raqobatlashgan, unga xos bo‘lgan nasta‘liq xatiga sayqal berib, uni yanada takomillashtirishgani ma‘lum.

Devonning yana bir ajoyib xususiyati uning tili bilan bog‘liq. Qo‘lyozma bilan tanishgan, ammo Navoiy ijodidan bexabar kitobxon bir o‘qishda uni o‘g‘uz turkchasida ijod qilgan shoirning devoni deb o‘ylashi tabiiy. Masalan:

*Mehr cho‘x go‘rsatdim ammo, mehribone dapmadim,  
Jon base qildim fido, oromi jone dapmadim.  
Ishq aro yuz min malomat o‘xina o‘ldum nishon,  
Bir kamon abruda duzluqdin nishone dapmadim.*

Ko‘rinib turibdiki, mashhur g‘azaldagi so‘zlar o‘g‘uz turkchasi (bugungi turk, ozarbayjon, turkman, gagazu tillari, o‘zbek tilining Xorazm shevasi)ga moslashtirilgan. Ehtimol, xattot Navoiy she‘rlarini o‘z shevasiga uyg‘un tarzda ko‘chirgandir, degan fikrlar ham yo‘q emas.

Ammo o‘sha davrda Oqqo‘yunli davlatida asosan turkiy tilning o‘g‘uz lahjasida gapirilgan, saroy she‘riyati ham asosan shu tilda bitilgan. Shu sababli mazkur devon oqqo‘yunlilar adabiy muhiti vakili tomonidan tahrir (qisman tarjima) qilingan bo‘lishi ham mumkin. Maqsad Navoiy she‘rlari tilini oqqo‘yunlilar muhitidagi turkiy kitobxonlarga yaqinlashtirish bo‘lgan. Demak, XV asrning 70-yillaridan boshlab, Navoiy oqqo‘yunlilar saroyi kitobxonlari orasida ehtirom topgan va ular Navoiy she‘rlarini o‘zlari saylab olib, devon shaklida tartib berganlar. Bu kezlarda turkiy muhitda Navoiy shoir sifatida tanilgan.

Xulosa qilib aytganda, Navoiyning ilmiy merosi hali ham o‘rganilmoqda. Asrlar osha hali ham biz Navoiy ijodini o‘rganishdan to‘xtamaymiz. Hazrat Alisher Navoiy bosgan yo‘llar, u kishining qilgan ishlari, xalqning dardi va qayg‘usi bilan yashagan buyuk shaxs, mutafakkir asrlar osha yana kelajak avlodning yo‘lini misli bir nur, yog‘du kabi mash‘ala bo‘lib yoritaveradi. Biz afg‘on yoshlari ham bu mo‘tabar va ulug‘ siymoning bosgan yo‘llarini shamchiroq kabi ilkimizda tutamiz hamda ul zotning asarlarini o‘rganishdan to‘xtamaymiz.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

- 1. Izzat Sulton. Navoiy haqida ikki maqola. Asarlar. 1-jild.*
- 2. Alisher Navoiy asarlari · Alisher Navoiy (Foniy). Sittai zaruriya · Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar ... Mukammal asarlar to‘plami.*
- 3. [Alisher Navoiy \(1441-1501\) - saviya.uz](http://saviya.uz)*

## FERMER XO‘JALIGINI LOYIHALASHTIRISH, PODANI BOQISH USULLARI VA TARKIBINI O‘RGANISH

**Alisher Ergashev Anvarjonovich, Xoljigitov Asqar Marifjonovich,  
Abdukarim Qo‘chqorov Nuriddinovich, Ilyosjon Xolbotayev Rustam o‘g‘li**  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent fililali

### ANNOTATSIYA

*Chorvachilik mahsulotlarini qishloq xo‘jaligi korxonalarida, fermer xo‘jaliklarida va xonadonlarda yetishtirishda, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillardan biri hayvonlarni qanday usulda boqilishi va ularning biologik ehtiyojini qondirishiga bog‘liqdir.*

**Kalit so‘zlar:** Chorvador, mahsulot, ozuqa, kompleks, shartli bosh, bog‘lab, sigir, sut, go‘sh va nasl

### АННОТАЦИИ

*При производстве продукции животноводства в сельскохозяйственных предприятиях, фермерских хозяйствах и приусадебных хозяйствах одним из важнейших факторов является способ кормления животных и удовлетворение их биологических потребностей.*

### ANNOTATION

*In the production of livestock products in agricultural enterprises, farms and household plots, one of the most important factors is the method of feeding animals and satisfying their biological needs.*

**Chorvachilik xo‘jaligi** — qishloq xo‘jaligining tarmog‘i bo‘lib, chorva mahsulotlarini yetishtirish uchun xizmat qiladi. Chorva fermalari mahsulot ishlab chiqarish, naslchilik yoki reproduktiv (nasldor mollarni ko‘paytirish) yo‘nalishida bo‘ladi.

Mahsulot ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan fermalar aholini go‘sh, sut, tuxum va boshqa ozuqa mahsulotlari, sanoatni jun, teri kabi xomashyo bilan ta‘minlaydi. Naslchilik fermalari hayvonlar naslini takomillashtirish va ularni ko‘paytirish bilan shug‘ullansa, tarqatish esa reproduktiv fermalari tomonidan amalga oshiriladi.

**Chorvador fermer xo‘jaligi** — chorvachilik mahsulotlari yetishtiruvchi, ayrim hollarda ularga ishlov berib tayyor mahsulot sifatida tayyorlovchi, ozuqa bilan ta‘minlovchi yer maydoniga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligi korxonasi.

**Chorvachilik kompleksi** – yirik ixtisoslashgan chorvachilik yo‘nalishidagi qishloq xo‘jaligi korxonasi, oddiy fermalardan barcha texnologik jarayonlarni kompleks mexanizatsiya va avtomatizatsiyalashganligi, ishlab chiqarishni uzluksizligi, bir joyda ko‘p sonli hayvonlarni yig‘ilganligi, asosan, bir yo‘nalishdagi mahsulot ishlab chiqarish bilan tavsiflanadi.

Hozirgi kundagi mavjud chorvachilik fermalarini tashkiliy nuqtayi nazaridan uch guruhga bo‘lish mumkin:

— oilaviy xo‘jaliklar va korxonalar qoshida tashkil etilgan yordamchi kichik fermalar;

— chorvador fermer xo‘jaliklari, 30 shartli bosh va undan ortiq moli bor hamda uzoq muddatli ijaraga berilgan yerdan foydalangan holda chorva mahsulotini yetishtirishga mo‘ljallangan sub‘ektlar;

— shirkat xo‘jaliklaridagi fermalar va komplekslar.

Hayvon organizmi atrof-muhit bilan bevosita bog‘langan. Bu uning hayoti uchun zarur bo‘lgan ozuqani tabiatdan olish va hayot faoliyatini ta‘minlashida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli hayvonlarni boqishda, saqlashda zoogigiena talablariga rioya qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda chorvachilikning turli tarmoqlarida hayvonlarni saqlash va ko‘paytirishda turli xil tizimlardan foydalanilmoqda. Tizimni tanlashda hayvon turi, ozuqa va suv bilan ta‘minlanish shakli, go‘nglarni tozalash talablari, tashqi muhit, sutni sog‘ib olish usuli, xo‘jalikning iqtisodiy imkoniyatlari, yer maydoni sharoiti inobatga olinadi.

Qoramolchilikda bugungi kunda mollarni saqlashning quyidagi tizimlari qo‘llanilib kelinmoqda:

— mollarni bog‘lab boqish;

— chuqur to‘shama ustida mollarni erkin holda yayratib boqish;


— bog‘lamasdan to‘shamasiz erkin holda bokslarda boqish.

qayd etilgan tizimlarning har biri yozda yaylovlardan foydalanilgan holda yoki yil mobaynida ferma og‘illarida boqilganda ham qo‘llanilishi mumkin.

### **Bog‘lab boqish tizimi**


Bu tizimda qoramollarning har biri ayrim og‘ilga bog‘langan holda boqilib, individual sug‘orish jihozi, oziqlanish joyi va umumiy oziqlanish oxuriga ega bo‘ladi (1-chizma).





1-chizma. Mollarni bog‘lab boqish tizimi.

1-oxur; 2-og‘il; 3-go‘ng arig‘i



2-chizma. Bog‘lab boqishga mo‘ljallangan molxonaning ko‘ndalang qirqimi:


1-go‘ng tozalash arig‘i; 2-og‘il; 3-bog‘lagich; 4-oxur; 5-ozuqa tarqatish yo‘li

Mollarni bog‘lab boqish uchun mo‘ljallangan molxonalarda og‘illar hayvonlarni “boshiga-boshi” yoki “dumiga-dumi” shaklida joylashtirilishi mumkin (2-chizma). Og‘illarga shaklida joylashtirilishi mumkin (2-chizma). Og‘illarga to‘shama uchun somon yoki yog‘och qirindisidan foydalaniladi. To‘shamalarning har kuni almashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu molxonalarda ozuqa oxurlarga qo‘zg‘almas joylashgan yoki harakatlanuvchi ozuqa tarqatgich jihozlar yordamida tarqatiladi.

Omixta yemlar, donli, sochiluvchi ozuqalar qo‘lda yoki zambil-g‘altakdan foydalanilgan holda tarqatiladi. Qoramollar har kuni yayratish maydoniga chiqariladi.

Sigirlar bir kunda uch marta sog‘iladi (ayrim hollarda ikki marta). Sut sog‘ish apparatlari orqali chelaklarga yoki sut quvurlariga sog‘ib olinadi. Sigirlarni maxsus sog‘ish zalida qurilma yordamida ham sog‘ish mumkin.

Bog‘lab boqish tizimida har 25—50 sigirga bir sog‘uvchi uzoq muddatga birlashtirib qo‘yiladi. Bu mas‘ul xodimning javobgarligini orttirib, sigirlarni sog‘ib olish, oziqlantirishi sifatini orttiradi. Bu tizim mehnat sarfini balandligi bilan farqlanadi.




3-chizma. Bog‘lab boqish uchun mo‘ljallangan molxona. 1-ozuqa yo‘li; 2-oxur ichida tasmali transpartyor joylashgan; 3-bog‘lagich; 4- og‘il; go‘ng tozalash arig‘i; go‘ngni chiqarish yo‘lagi.

#### **Bog‘lamasdan erkin holda yayratib boqish tizimi (*chuqur to‘shama ustida*).**

Bu tizim xo‘jalikda mustahkam ozuqa bazasi, yetarli darajada to‘shama material bo‘lganda qo‘llaniladi. Tizim hayvonlarni bog‘lamasdan boqishga asoslangan bo‘lib, isitilmaydigan binolarda almashtirilmaydigan qalin to‘shamalarda dam olishiga mo‘ljallangan. (4-chizma).

Oziqlantirish alohida ajratilgan maxsus maydonchalarda bostirma ostida yoki yayratish-oziqlantirish hovlilarida amalga oshiriladi. Ozuqalar harakatlanuvchi tarqatgichlar yordamida tarqatiladi. Hayvonlar ozuqaga erkin holda keladi. Sigirlarni sog‘ish qo‘zg‘almas qurilmalar yordamida amalga oshiriladi. Hayvonlar ko‘p vaqt toza havoda bo‘ladi, bu esa ularning organizmiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Sigirlar sog‘ilishi, yoshi va fiziologik holati bo‘yicha guruhlarga taqsimlanadi.

Bog‘lamasdan erkin yayratib boqish tizimi hayvonlarni boqish bilan bog‘lik bo‘lgan sarf-xarajatlarni keskin kamaytiradi. Tizim uchun har bir sigirga yiliga bir tonnaga yaqin somon to‘shamasi talab etiladi.




4-chizma. Bog‘lamay erkin boqish molxonasi. 1- hayvonlar dam olish makoni; go‘ng transportyori; 3-oxur; 4- harakatli ozuqa tarqatgich.

**Bog‘lamasdan to‘shamasiz erkin holda bokslarda boqish tizimi.** Bu tizimda sigirlar dam olishlari va oziqlanishi uchun bokslar va oxur o‘rnatilgan binoda joylashadi (5-chizma). Sigirlar ozuqalarga erkin holda yaqinlashib oziqlanadi. Bokslar va oziqlanish zonasining o‘tish oralig‘ida tirqishli pollar o‘rnatiladi. Ekskrementlar ana shu tirqishlar orqali polning tubida joylashgan kanallarga hayvon oyoqlari bilan bosishi natijasida tushadi. Go‘ng har kuni mexanik yoki gidravlik moslamalar yordamida tozalab turiladi. Ayrim hollarda tirqishli pol tubiga chuqur joylashgan gungura o‘rnatilishi mumkin. Bunda go‘ng gunguradagi hajmiga ko‘ra bir yilda 1—2 marotaba mexanik tozalash-yuklash moslamalari yordamida chiqariladi.

Sigirlar sog‘ish zalida o‘rnatilgan qurilmalar yordamida sog‘ib olinadi. Bog‘lamasdan to‘shamasiz erkin xolda boqish tizimi mamlakatimizning shimoliy xududida qo‘llanilishi mumkin.

Hayvon va parrandalar strukturasi to‘g‘ri tanlash — hayvon bosh sonining doimiy ravishda tiklanib borishi hamda yetarli darajada mahsulot yetishtirishga imkon beradi.

Qoramolchilik fermalari mahsulot yetishtiruvchi mahsulot turiga qarab uch yo‘nalishda bo‘ladi. Sut, go‘sh-tut va bo‘rdoqchilik fermalari. Ulardagi poda tarkibining o‘zgarishi 1-jadvalda keltirilgan.



5-chizma. Bog‘lamasdan boksdan saqlash molxonasining ko‘rinishi: 1-oxur ichida tasmali transportyori bilan; 2- panjarali ozuqa go‘ng yo‘li; 3-mol dam olish boksi.

bir yilda 1—2 marotaba mexanik tozalash-yuklash moslamalari yordamida chiqariladi.

Sigirlar sog‘ish zalida o‘rnatilgan qurilmalar yordamida sog‘ib olinadi. Bog‘lamasdan to‘shamasiz erkin holda boqish tizimi mamlakatimizning shimoliy hududida qo‘llanilishi mumkin.

Hayvon va parrandalar strukturasi to‘g‘ri tanlash — hayvon bosh sonining doimiy ravishda tiklanib borishi hamda yetarli darajada mahsulot yetishtirishga imkon beradi. Qoramolchilik fermalari mahsulot yetishtiruvchi mahsulot turiga qarab uch yo‘nalishda bo‘ladi. Sut, go‘sh-sut va bo‘rdoqchilik fermalari. Ulardagi poda tarkibining o‘zgarishi 1-jadvalda keltirilgan.

## 1-jadval

## Qoramolchilik fermasining poda tarkibi, (foiz hisobida)

Hayvon turi	Maxsus sut yo' nalistdagi buzoqlarni 20 kun mobaynida boqishga mo'ljallangan	Maxsus sut yo' nalistdagi buzoqlarni 6 oy boqishga mo'ljallangan	Go' sht-sut yo' nalistida, tugallangan poda aylanishi bilan	Maxsus bo' rdoqichilik
Sigirlar	60-65	50	35-37	-
g'unajinlar	9-10	8-10	6	-
1 yoshdan katta urg'ochi buzoqlar	11-12	9-10	-	-
6-12 oylik urg'ochi buzoqlar	7-8	6-7	-	-
6 oygacha bo'lgan urg'ochi buzoqlar	8-10	-	-	-
bir yoshdan katta mollar	-	-	22-24	-
6-12 oyli yosh mollar	-	-	17	-
6-14 oyli o'stirishga qo'yilgan yosh mollar	-	-	-	70
14-18 oyli bo'rdoqidagi yosh mollar	-	-	-	30

**Hulosa.** Chorvachilik xo'jalikning iqtisodiy imkoniyatlari, yer maydoni sharoiti inobatga olingan holda bugungi kunda qoramollarni saqlashning quyidagi tizimlarini baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- mollarni bog'lab boqish bunda ozuqa xarajatini kamaytirish va hayvonlarning mahsuldorligini hisoblab borishda bog'lab boqish yaxshi hisoblanadi. Bunda hayvon turlari uchun alohida binolar moslashtirib quriladi, ya'ni sigirlar uchun, buqalar, o'sishdagi buzoqlar, bo'rdoqi mollar uchun alohida molxona quriladi. Shuning uchun bog'lab boqish bordoqichilikda qulay hisoblanadi.

- chuqur to'shama ustida mollarni erkin holda yayratib boqish yil davomida erkin harakatda yayratish va oziqlanish maydonlarida yuradi, toza havoda turib yoki yotib bemalol dam oladi. Yil davomida toza havodan nafas olishi, doimo o'zgarib turuvchi

harorat, namlik, havoning harakati, Quyosh nuri tufayli organizmning chidamliligi oshadi, modda va issiqlik almashish faollashadi. Chorva mollarini bog‘lamay boqishning xo‘jalik uchun foydasi juda katta, Chunki ularga qarash uchun mehnat kam sarf bo‘ladi, Molxonada har xil jihozlarni ishlatishga ehtiyoj qolmaydi. Shuning uchun sut yonalishdagi qoramolchilik fermalari uchun qulay hisoblanadi.

- bog‘lamasdan to‘shamasiz erkin holda bokslarda saqlanganda xuddi bog‘lamay boqiladigan sigirlardek mahsuldorligi pasaymaydi, bog‘lash materiallari sarflanmaydi, elinlari ifloslanmaydi va har biri o‘z o‘rnini topib joylashadi va ozuqalarni tarqatish biroz yengilashadi va bu usul hozirgi zomonaviy fermalar uchun qulay hisoblanadi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. *Suvonqulov Y.A. "Qishloq xo‘jaligi hayvonlari gigiyenasi" Toshkent, 1994 y.*
2. *Медведский В.И. «Содержание, кормление и уход за животными». Минск, 2007*
3. *Кочии И.И., Калюжный Н.С., Волчкова Л.А., Нестеров В.В. «Зоогигиена», Москва, 2008*
4. *Nosirov U.N. «Qoramolchilik», Toshkent 2004*

## MULOQOTDA PARALINGVISTIK VOSITALAR

**Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna**

PhD, Farg‘ona davlat universiteti

**Asqaraliyeva Xayotxon Akbarali qizi**

FarDU Magistratura bo‘limi Lingvistika  
ingliz tili yo‘nalishi 21-07 guruh talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ma‘lumki, paralingvistik vositalar ham yozma, ham og‘zaki nutq kontekstiga kiritiladi. Ammo, yozma nutqda kontekstning roli juda muhimdir, chunki kontekst faqat lingvistik vositalarni anglatadi va bir yoki bir-birining ma‘nosi yopiq birlik ichida o‘rnatilmaydigan hollarda so‘z yoki jumla doirasini kengaytiradi. Maqolada shu kabi masalalar ko‘rib chiqiladi*

***Kalit so‘zlar:** paralingvistika, imo-ishoralar, fizologik refleks, muloqot, vositalar, fikr.*

### KIRISH

Inson fikr ifodalashda tildan foydalanar ekan, ma‘lum axborotni tinglovchiga yetkazish jarayonida tilga yondosh bo‘lgan yordamchi (noverbal) vositalardan foydalanadi. Paralingvistik vositalar har bir kishilik jamiyatida kommunikatsiyada tabiiy ravishda nutqni kuzatib boruvchi vato‘ldirib keluvchi ikkilamchi vosita bo‘lgan. Paralingvistika nutqiy muloqot bilan birga fikr, xabar, maqsadni ifodalashda qatnashuvchi imo- ishora, ohang, mimika, gavda harakatlari kabi vositalarni o‘rganadigan sohasisoblanadi. Paralingvistik vositalar sharoitga qarab nutqni ma‘lum me‘yorga keltirish, xususan, ixchamlashtirish, adresantning maqsadini aniq ifodalash vazifasini bajaradi [1].

### ADABIYOTLAR SHARHI

Paralingvistika - bu og‘zaki muloqotga hamroh bo‘lgan va ma‘lumot uzatishda ishtirok etuvchi omillarni o‘rganish bilan shug‘ullanadigan yangi tilshunoslik fanidir. Tilshunoslik fani aynan ikkita tushunchani farqlash muhim hisoblanadi: “paralingvistika” va “paratil”; “paralingvistika” - nolingvistik vositalar to‘g‘risidagi fan sifatida, “paratil” esa - lingvistik aloqada ishtirok etadigan vositalarni o‘z ichiga oladi. Fanda ma‘lum bo‘lishicha “paralingvistika” termini tilshunoslik faniga yaqinda kirib kelgan bo‘lib, til orqali qo‘llanmaydigan vositalarni ifoda etib, u og‘zaki muloqotga asos bo‘lgan va axborotni uzatishda ishtirokyetuvchi omillarni o‘rganadi.

Paralingvistika - yozma tilda qo‘llaniladigan vositalar ya‘ni undov belgisi, undov va so‘roq belgilarining kombinatsiyasi, chizmalar, grafiklar, matnning grafik segmentatsiyasi va uning qog‘ozda joylashishi, shrift va rang-barang to‘plamlar, noodatiy imlolardir. Masalan, Paratil - bu lingvistik muloqotda ishtirok etadigan vositalar to‘plami. Keng ma‘noda artikulyatsiya - bu muloqot jarayonida fonatsiya momentlarining sintezi. Fonatsiya tovush paralingvistik hodisalarni o‘z ichiga oladi hamda artikulyatsiya bilan bog‘liq. Ushbu ishda olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi fransuz va o‘zbek tilida yozilgan badiiy asarlar matnlarida ma‘lum bir paralingvistik hodisadan foydalanishning maksimal samaradorligini aniqlashdan iborat [2].

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O‘zbek tili tarkibida quyidagi inkor ma‘no ifodalovchi kinetik vositalar uchraydi:

1. Boshning gorizantal va vertikal harakatlari jahonning juda ko‘p xalqlarida tarqalgan bo‘lib, tasdiq va inkor ma‘noni ifodalovchi bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, o‘zbeklarda ham boshning gorizantal harakati “yo‘q”, vertikal harakati esa “bor” ma‘nosini bildiradi. Bu belgilarning tasdiq ma‘nosi uchun “bosh irg‘amoq” inkor ma‘nosi uchun “boshini chayqatmoq”, “boshini sarak-sarak qildi” kabi ishlatiladi. Masalan:

- *Maqola paxta kasalliklari, ularni oldini olish va bartaraf etishhaqida. Ahmad tushunarli degandek bosh egib qo‘ydi.* (F.Musajonov. “Ximmat”, 66-bet).

- *Cholim orqaga tisarilib, boshini sarak qildi.*

- *Yo‘q! – dedi xansirab.* (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”, 282-bet).

2. Tasdiq va inkorning semantik qutb belgilari qarama-qarshi kinetikshakllarni talab qiladi. Boshning harakati, xohish qo‘shilganini ifodalab, tasdiq ma‘nosini bildiradi. Buning antonimi sifatida suhbatdoshinifikriga, xohishiga kutilmaganini – inkorini ifodalash uchun boshni oldinga harakatga qarama-qarshi tomonga orqaga silkish ham mumkin edi. To‘liq inkorni bildiradi. Bu vaqtda inkor ifodalovchi imo-ishoralardan harakterli belgisi, asosan, **-mi** yuklamasi orqali ifodalangan so‘roq gaplarga javob bo‘lib kelgan. Bu esa logik urg‘u kesimining tarkibida bo‘ladi.

Masalan: - *Ruchkang bormi?* Javob: Boshning gorizantal harakati.

- *Qiz “yo‘q” degandek bosh chayqadi.* (F.Musajonov. “Ximmat”, 11-bet).

3. Inkor ma‘nosini kuchaytirish uchun ba‘zan bunday gaplarda ham imo-ishoralardan so‘ng yana inkor bildiruvchi javob verbal ifodalanishi mumkin. Masalan: - *Meni qo‘yaver, o‘zim ketaman. Qiziq. Olimjon kattalardek xotirjam bosh chayqadi.*

### XULOSA VA MUNOZARA

Taxlilarimiz natijasida, paralingvistik vositalarni o‘rganish vatadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Paralingvistik vositalar fikrni ifodalashda eng sodda, eng tejamli vosita hisoblanadi. Shuningdek, ma‘lum bir xabar tashishda lingvistik vositalarda yordam beradi, ba‘zi o‘rinlarda hatto lingvistik vositalar vazifasini ham bajaradi.



Nutqsiz vositalar mustaqil emas, balki yordamchi aloqa vositasidir. Ular nutqni tayyorlaydilar, hamrohlik qiladilar, izohlaydilar, tushuntiradilar, uning chuqur mohiyatini ochib beradilar. Shuning uchun, ularni ishlatishdan oldin, nima haqida gaplashishni bilish kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Begmatov E. *Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari*. T.: Fan.2015. 199-bet.
2. Doniyorov X. *Qipchoq dialektlarining leksikasi*. T.: 2001.
3. Nurmonov N.A. *O‘zbek tilining paralingvistik vositalari*. Andijon.2010.
4. Мухитдинова, М. С., & Камалова, М. Н. (2020). Развитие педагогических инноваций в Узбекистане. *Наука и образование сегодня*, (6-1 (53)), 67-69.
5. Камалова, М. (2020). *Наука и образование сегодня* № 6 РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Архив научных исследований*, (26).
6. Камалова, М. (2020). *Наука и образование сегодня* № 4 РОЛЬ СОВРЕМЕННОГО ПРЕПОДАВАТЕЛЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ СТАНОВЛЕНИИ МОЛОДЁЖИ. *Архив научных исследований*, (26).
7. Камалова, М. Н. (2022). МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ЯЗЫКОВОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ НЕЯЗЫКОВЫХ ВУЗОВ. *Архив научных исследований*, 2(1).
8. Камалова, М. Н. (2022). ВОСПИТАНИЕ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ ЭКОНОМИСТОВ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ. *PEDAGOGS journali*, 11(5), 62-68.
9. Камалова, М. Н. (2022, June). ВЗГЛЯДЫ НА ОБРАЗОВАНИЕ ДРЕВНИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА И СОВРЕМЕННЫЕ РЕФОРМЫ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *In E Conference Zone* (pp. 277-280).
10. Davranova, A. (2022). QALQONSIMON BEZ PATOLOGIYASI BO‘LGAN O‘SMIR QIZLARDA HAYZ DAVRINING BUZILISHINI O‘ZIGA XOSLIGI. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 2(8), 113-115.
11. Азимбегова, С. Н., & Давранова, А. Д. (2022). БОЛАЛАРДА 1-ТУР ҚАНДЛИ ДИАБЕТНИ ДАВОЛАШИНИ ЎЗГАРТИРИШ ВА ДИАБЕТИК РЕТИНОПАТИЯСИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. *ЖУРНАЛ ГЕПАТО-ГАСТРОЭНТЕРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ*, 3(2).
12. Djuraeva, Z. A., Togaeva, G. S., & Davranova, A. D. (2022). Knowledge and Attitude towards Psychiatry among Nursing Staffs in Tertiary Health Care Hospital. *Advances in Clinical Medical Research*, 3(2), 4-6.

13. Shukhratovna, N. G., Siddiqovna, T. G., Davranovna, D. A., & Nodirovna, A. S. (2022). *Analysis of the thyroid status of pregnant women in the iodine-deficient region. The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 4(01), 74-78.

14. Sadikov, E. (2022). *How pragmatic skills can help improve students' conversational skills. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 24(24).

15. Tursunovich, S. E. (2022). *Classification of compliments as speech acts and their basic characteristics in Uzbek and English languages. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 4, 77-79.

16. Tursunovich, S. E. (2023). *Actual Issues of Teaching Pragmatic Competences to English Language Learners in Uzbekistan. Miasto Przyszłości*, 31, 148-152.

17. Tursunovich, S. E. (2021). *THE ROLE OF PRAGMATICS IN OVERCOMING CHALLENGES OF ACADEMIC WRITING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 247-249.

## ТУРЛИ ТИЗИМЛИ ТИЛЛАРДА “БОЙЛИК” КОНЦЕПТИНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Мухторова Барно Алишеровна

Фарғона давлат университети

инглиз тили кафедраси ўқитувчиси, докторант

e-mail: [barnomukhtorova@gmail.com](mailto:barnomukhtorova@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада “бойлик” концептининг денотатив ва коннотатив маънолари ва уларнинг лексик-семантик хусусиятлари мисоллар афтрофида ёритилган.

**Калит сўзлар:** концепт, лексикографик изоҳ, денотатив маъно, коннотатив маъно, сема.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье на примерах рассматривается денотативное и коннотативное значения концепта «богатство» и их лексико-семантические особенности.

**Ключевые слова:** концепт, лексикографическое объяснение, денотативное значение, коннотативное значение, сема.

### ANNOTATION

This article discusses the denotative and connotative meanings of the concept "wealth" and their lexical and semantic features using examples.

**Key words:** concept, lexicographic explanation, denotative meaning, connotative meaning, seme.

Сўзнинг лексик-семантик хусусиятларини ёритиш учун муайян тилдаги сўзнинг луғавий маъноларини келтириш ҳамда таҳлил қилиш сўз семантикасига қаратилган тадқиқот усули ҳисобланиб, концепт билан боғлиқ тил бирликларининг ҳам ушбу хусусиятларини аниқлаш кабиларини ўз ичига олади.

“Бойлик” концепти кўп сатхли, кенг қамровли бўлиб, унинг ҳозирги замон ўзбек тили лексикографик изоҳларига тўхталадиган бўлсак, «Ўзбек тилининг изоҳли луғати»да қуйидаги таърифлар келтирилади:

Бойлик. 1. Бой бўлишлик, бой мавқеи; молк-мулкнинг йиғиндиси, мажмуи; мўллик. Ота бойлиги ерга сингар, меҳнат бойлиги-элга. Мақол. Бу йигит

яхшигина давлатманд бўлса ҳам... нима учундур, **бойлиги** билан бўлмай, “Ҳомид хотинбоз” деб шуҳратланган. А. Қодирӣ, Ўтган кунлар. Ҳовли саҳнига, айвонларга “сеп” ёйилди. Сепнинг **бойлиги**, тури, ранг-баранглиги ҳаммани ҳангманг этди. Ойбек. Танланган асарлар. *Йирикроқ тошлар ҳукмронлик ва бойлик ифодаси саналган*. С. Кароматов, Олтин кум. **2**. Дунё, давлат, мол-мулк. *Муҳаббат бойликка боқмас*. Мақол. Рўзгор ўлчов билан, **бойлик тежов** билан. Мақол. *Ўнг олти минг қўй, икки ярим минг йилқи ҳазилакам бойлик эмас*. П.Қодиров. Юлдузли тунлар. **Бойлик бор жойда самимийлик ўрнини сохталик эгаллайди**. Ф. Мусаёнов, Ҳиммат. **3**. Табиӣ, моддий ресурслар мажмуи. **Ер ости бойликлари. Моддий бойликлар. Табиӣ бойликлар. Қазилма бойлик**. Эндиликда *Ўзбекистон улкан табиӣ бойликлар, кўндан-кўн ноёб саноат маҳсулотлари ватанидир*. “Саодат”. Ўлкамиз **табиӣ бойликларини ўрганиш**.. ишига нуфузли олимларимиз салмоқли улуш қўшмоқдалар. Газетадан. Эндиликда инсониятга зарур **моддий бойликларнинг** учдан икки улуши аёл қўли, аёл ақл-заковати билан яратилади. Газетадан. **4**. Ақлий, руҳий, маънавий фаолият ҳосиласи, мажмуи. **Миллий бойлик. Маданий бойлик. Маънавий бойлик**. Ақдан ортиқ **бойлик йўқ**. Мақол. *Тарихий ва маданий ёдгорликлар-бизнинг миллий бойлигимиз, чексиз фахримиздир*. Газетадан.

“Ўзбек тилининг изоҳли луғати” да келтирилган ушбу маъноларнинг биринчиси бош маъно ҳисобланади. Масалан, *бой бўлишлик, бой мавқеи; молк-мулкнинг йиғиндиси, мажмуи; мўллик*.- бу “бойлик” сўзининг бош маъноси ҳисобланса, мисол учун *Ана шундай кенг сарҳадларда маърифат ва соғлиқни сақлаш, илм-фаннинг тараққиётдан ортда қолиши сабабини муллалар, муфти ва амирларнинг кенг маънодаги илм-фандан узоқлиги, мансабу бойликка (бош маъно) ўчлиги, порахўрлиги туфайли деб билган Фитрат...*(А.Фитрат “Ҳинд сайёҳининг қиссаси” асаридан); *дунё, давлат, мол-мулк*- “бойлик” сўзининг иккинчи маъносидир, бунда иккинчи маъно биринчисига нисбатан ҳосила маънодир, масалан, *Бухоро аҳолиси жуда катта давлат ва бойлик (ҳосила маъно) эгаси бўлиши мумкин*.(А.Фитрат “Ҳинд сайёҳининг қиссаси” асаридан); “*табиӣ, моддий ресурслар мажмуи*” “бойлик” сўзининг учинчи маъноси бўлиб, нисбий бош маъно саналади. Мисол учун, *Бухоро давлатининг маданияти, табобати, саноати ва ҳатто ер ости бойликларидан (нисбий бош маъно) халқ манфаати йўлида фойдаланиш, ўлканинг маънавий ва моддий бойликлари (нисбий маъно) ҳақидаги қайгуришлари уни ўқувчи кўз ўнгида юксакликка кўтаради*. (А.Фитрат “Ҳинд сайёҳининг қиссаси” асаридан). Тўртинчи ва бешинчи маънолар эса кўчма маъноларни ифодалайди, “бойлик” сўзининг кўчма маъноси *ақлий, руҳий, маънавий фаолият ҳосиласи, мажмуидир*, мисол учун,

*Халқ ўз тилини энг улкан миллий бойлик (кўчма маъно) сифатида асраши керак.* Газетадан Шундан келиб чиқиб шуни таъкидлаш жоизки, “бойлик” сўзи бош, ҳосила маъно, нисбий ҳамда кўчма маъноларга эгадир. Сўзнинг бош маъноси денотатив ва коннотатив семаалардан иборат бўлиб, ҳосила маъно денотатив, коннотатив ва умумий (боғловчи) семааларга эга бўлиши билан, кўчма, фигурал маъно эса денотатив, коннотатив ва асословчи семаалардан иборат бўлади. Кўчма маъноли лексемаалар, одатда, услубий бетараф, фигурал маънолар эса услубий хосланган шаклларда намоён бўлиши кузатилади.

Юқорида келтирилган лексикографик таърифлардан кўриниб турибдики, “бойлик” сўзининг бир-биридан фарқланадиган, лекин қайсидир жиҳатдан умумий маъно атрофида мужассамлашганлигини кўрдик. “Бойлик” сўзининг луғавий маъноларини инглиз тилидаги лексикографик манбаларда келтирилишини ҳам кўриб чиққанимизда қуйидаги таърифларга дуч келдик. **Wealth** *noun.* (money) 1. A large amount of money or valuable possessions that someone has., яъни “бирор кимсанинг катта миқдордаги пулга ҳамда қимматбаҳо мол-мулкка эгаллиги” *Appalling poverty and great wealth coexist in the city.* ( ўзбек тилида: Шаҳарда даҳшатли қашшоқлик ҳамда катта бойлик мавжуд эди. 2. (large amount) a large amount of something good, яъни бирор яхши нарсанинг катта миқдордалиги; *Jim has a wealth of teaching experience.* (ўзбек тилида: Джим ўқитишида бой тажрибага эга. *Russia has a wealth of coal and timber.* ( ўзбек тилида Россияда кўмир ва ёғочга бой) (Cambridge Advanced Learner’s Dictionary & Thesaurus)

Турли тизимли тилларда “wealth” (бойлик) концептининг вербализаторларидан ҳисобланмиш -лексема синоним ҳамда антонимларга эга. Масалан,

**Синонимлар:** abundance -изобилие; избыток; богатство; достаток-бойлик, мўл-кўллик, мўллик, мўлчилик, серобгарчилик, сероблик, тўкин-сочинлик, мол-мулк, дунё, давлат; affluence-достаток, богатство, изобилие-тўкин-сочинлик, мўллик; cash -деньеги, денежная наличность-пул,нақд пул, маблағ; property -имущество, собственность-мулк, мол-мулк; prosperity -благосостояние-фаравонлик; revenue -доход; выручка-даромад; riches -богатство, сокровища-бойлик, мол-мулк; richness- богатство; изобилие -бойлик, мўлчилик; security- благополучие, обеспеченность- фаравонлик, тўкин-сочинликдаги ҳаёт; worth- состояние, доход, богатство- пул, бойлик, мулк; treasure -богатство, деньеги-

бойлик, хазина, пул ; assets-активы; актив; средства; имущество; капитал; фонды; авуары- мулк; belongings- имущество-мулк; bounty -поощрительная премия-неъмат; capital -выгода, преимущество-фойда; in clover- не жизнь, а малина[ масленица]-тўкин-сочинликдаги ҳаёт; commodities-товар, предмет купли, предмет продажи-товарлар; copiousness- плодovitость; изобилие-бойлик; cornucopia -рог изобилия-мўл-кўллик; dough-деньги -пул (норасмий, оғзаки нутқда); estate -имущество- мол, мол-мулк; fortune- богатство- бойлик, давлат, мулк; funds- финансовые средства-маблағлар; goods-имущество- мулк; gold-деньги, сокровища, богатство-бойлик, хазина, олтин, тилла; luxuriance-изобилие, достаток, избыток, богатство- бойлик, тўкин-сочинлик, дабдаба; lucre- выгода-даромад; luxury-богатство, пышность, роскошь- бойлик, дабдаба, тўкин-сочинлик; means материальные ценности, богатства; сокровища-бойлик, хазина; hoard-запас-жамғарма; holdings- вклады, авуары-ҳисса; opulence- изобилие, богатство-мол, тўкин-сочинлик; pelf-деньги, презренный металл; богатство-пул, бойлик; plenitude-обилие, изобилие, богатство- тўла-тўқислик, сероблик, тўкин-сочинлик; plenty-(из)обилие; достаток- серобгарчилик, тўкин-сочинлик; possessions-собственность; имущество- мулк; profusion -изобилие, богатство; избыток- мўлчилик, тўкин-сочинлик, серобгарчилик, бойлик; store-запас- захира; substance- имущество, состояние-мулк.

Бор-буд, буд яъни бисотидаги бор нарса, (бутун) мол-мулк, буд-шуд. *Уйига бирон меҳмон, айниқса азиз меҳмон келса, бор-будига кифояланмай, оёғи куйган товўқдай югуради, ўзида бўлмаса, қўшинисиникига югуради.* С. Нуров, Нарвон.

*Антонимлар:* debt -долг-қарз; need -нужда, бедность, ницета- камбағаллик, мухтожлик; lack - отсутствие; недостаток-мухтожлик, етишмовчилик, камчилик; poorness -бедность- камбағаллик, ночорлик, танқислик, камлик, озлик, камчилик, етишмовчилик; poverty- бедность, ницета, нужда, скудость-камбағаллик, қашшоқлик; scarcity -нехватка; дефицит; недостаток-танқислик, камчилик; want - нужда; ницета, бедность-етишмовчилик, қашшоқлик.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, концептнинг лексик-семантик хусусиятларини очиб беришда лексема (сўз)нинг денотатив ҳамда коннотатив маъноларини лексикографик изоҳлар ва уларнинг маъноларидан келиб чиққан ҳолда мисоллар орқали ўрганилиш тавсия этилади.

**Фойдаланилган адабиётлар ва интернет  
ҳаволалари рўйҳати:**

1. Л.Л. Нелюбин, Толковый переводоведческий словарь, Третье издание, переработанное Москва Издательство «Флинта» Издательство «Наука» 2003, стр. 91
2. Жеребило Татьяна Васильевна, Словарь лингвистических терминов, Издание 5-е, исправленное и дополненное, Назрань Издательство ООО «Пилигрим» 2010, стр.165
3. Аскольдов С.А. Концепт и слово. Статья. Опубликовано в книге: Русская словесность: от теории словесности к структуре текста: Антология / Под общ. ред. В.П. Нерознака. - М.: Academia, 1997. - С. 267-279.
4. Nozima, O. (2022). Teaching English language to uzbek students of mathematics field, pedagogical analyses and considerations. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 436-441.
5. З.Ибрагимова, Полисемантик лексемалар, O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 13-son, 20.11.2022
6. Kizi, Z. K. (2022). " IN THE VORTEX OF HARDSHIPS" NOVEL. Gospodarka i Innowacje., 21, 87-89.
7. Абдурауф Фитрат. Ҳинд сайёҳининг қиссаси, «Шарқ юлдузи» журнали 1991 йил, 8-сон
8. Akhunova, N. (2021). Comparative analysis of Indicative, Imperative and Subjunctive Moods in English and Uzbek languages. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(2), 25-30.
9. Mukhtorova, B. (2023). THE LINGUISTIC AND CONCEPTUAL PICTURE OF THE WORLD. Science and innovation, 2(B1), 461-466.
10. qizi Usmonova, U. H., & Mukhtorova, B. (2023). PAREMIOLOGICAL UNITS OF LANGUAGE. GOLDEN BRAIN, 1(1), 241-244.
11. Alisherovna, M. B. (2020). Comparative analysis of the English and Russian proverbs and sayings representating the concept" money". Проблемы современной науки и образования, (4-2 (149)), 43-45.
12. <https://www.thesaurus.com>
13. <https://sentencedict.com>
14. <https://dictionary.cambridge.org>

## WAYS OF PRODUCTIVE WORD FORMATION OF MASS MEDIA TERMS IN ENGLISH AND UZBEK

**O'ktamova Nilufar Nozimjon qizi**

Teacher, University of Tashkent for Applied sciences

[n.yusupova1994@gmail.com](mailto:n.yusupova1994@gmail.com)

### ANNOTATION

*This article provides the ways of productive word formation of mass media terms in the English and Uzbek languages, as well as the examples of effective ways of constructing mass media terms have been analyzed in both languages.*

**Key words:** word formation, borrowing, compounding, morphological derivation, affixation, acronymy, blending.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tili ommaviy axborot vositalari terminlari yasashidagi sermahsul usullari keltirilgan bo'lib, shuningdek, mazkur tadqiqot davomida ommaviy axborot terminlarining sermahsul usullari yasashiga oid misollar har ikki tilda ham tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** so'z yasalishi, o'zlashma so'zlar, qo'shma so'zlar, morfologik derivatsiya, affiksatsiya, akronimiya, blending.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье представлены способы продуктивного образования терминов СМИ на английском и узбекском языках, а также проанализированы примеры эффективных способов построения терминов СМИ на обоих языках.*

**Ключевые слова:** словообразование, заимствование слова, сложные слова, морфологик деривация, аффиксация, акронимия, блендинг.

Word formation is nowadays perceived to be such a confused area of study that it would not be possible to write an uncontroversial introduction to the subject. Bauer [Bauer,1986: p.116] recognizes that much of the confusion in word formation studies is terminological.

**Borrowing** is one of the most important and active productive methods, which enriches the vocabulary of the language. According to Bill Bryson [Bryson p. 27], many lexical units and words in English language came through this method -



borrowing. In linguistics, borrowing (also known as lexical borrowing) is the process by which a word from one language is adapted for use in another. Here we can see some examples for borrowings from English mass media terms:

Italian: *gazette, paparazzi, studio, novel*; French: *kiosk, magazine, journal*; Chinese: *Weibo, duoyin, kuaishou*; Indian: *pundit*; Latin: *radio, propaganda, portal, author, video, globalization, genre, channel, communication, media*; Greek: *comedy, autograph, television, program, hypermedia, hyperlink, photography*. Our research work showed that, borrowings of Uzbek mass media terms include Arabic, Persian, Russian, English and other languages. The followings are some borrowing examples of Uzbek language mass media terminology:

Arabian: *aloqa, matbuot, maktub, xabar, axborot, muxbir, mahalliy, ommaviy, tahrir, sahifa, asar, lavha, loyiha, muxlis, muxlisa, tomosha, ijod, tanqid, tanqidiy, ijro, hajviy, notiq, nutq, varaqa, suhbat, ma'ruza, maqola, taqriz, matbaa, muloqot*; Persian-Tadjik: *suxandon, sarlavha, tomoshabin, ijodkor, matbuotshunos, xabarnoma, axborotnoma, tahlilnoma, savodxon, ro'znoma*; Russian: *adresant, adresat, anons, rejissor, ssenarist*; English: *pamflet, intervyu, informatsiya, brifing, glossariy, onlayn, blog, blogger, multimediya, rialiti shov, tok-shov*; Italian: *gazeta, paparatsiya, studiya*; French: *felyeton, korrespondensiya, ocherk, syujet, remarka, janr*; Latin: *retsenziya, reportaj, diskussiya, televizor, publitsistika, radio, pressa redaksiya, reklama*; Greek: *Komediya, televizor, programma, gipermediya, giperlink, fotografiya*. Besides, the above borrowing terms are acquired in the Uzbek language due to certain linguistic phenomena, for example assimilation and others. As the mass media industry develops, so does mass media borrowings.

**Compounding** is one of the most productive ways of word-formation in English and Uzbek languages, which “consists in the combination of two or more roots to form a new word” [Bauer,1986: p.112]. Compounding is a very common process in most languages of the world (especially among synthetic languages). In English, for instance, compound words can be written in three different ways:

a. *Open*, with a space between the parts of the compound: *yellow journalism, mass media, prime time, sketch blog, remote control, print media, social media, soup opera, media bias, mass audience, cross media, tele show, video game, textbook, interview, phone bill, guide book*; b. *Hyphenated*, with a hyphen (-) separating the elements of the compound: *well-informed, co-author, internet-media, multi-author, virtual-reality, web-based, talk-show*; c. *Solid*, without a space or hyphen between the component elements of the compound: *newspaper, broadcast, feedback, Wikipedia, photoblog, postcard, wallpaper, billboard, network, outlet, website, teleshop, newsprint, hyperlink, photocopy, scandalmonger, cameraman, anchorman*.

Examples of this rule can also be observed in Uzbek language:

**Morphological derivation** is also one of the most productive methods in the formation of mass media terms in English and Uzbek languages. The terms are formed by adding suffixes to existing words. This method is also called affixation [Sarimsakov, 2020: p.87]. As we know, suffixes do not make sense on their own, but when added to the base, it changes their meaning. It also adds meaning to words and syntactically connects words.

*dis-, inter-, on-, bi-, extra-, multi-, co-, re-: disinformation, internet, interpersonal, intercommunication, interactive, international, co-author, biweekly, extraordinary, multi-author, biannual, rewrite, reprint*

*-or: editor; -er: writer, reporter, photographer, publisher, recorder, blogger, YouTuber, TikToker, presenter, producer, follower, subscriber, announcer, advertiser; -ist: journalist, columnist; -ism: journalism, sensationalism; -tion: information, publication; -ing: recording, weekly, monthly, daily, annually, yearly*

In Uzbek language, suffixation is also one of the most active methods of word-formation. Uzbek mass media terms are created by adding suffixes to Uzbek native words or borrowing words and it is effective method in mass media terminology. Following we can see several examples of this method:

a. Prefixes: *no-: nofaol, nodavlat, norasmiy; dez-: dezinformatsiya;*

b. Suffixes. We have divided suffixes those create Uzbek mass media terms into following groups: suffixes which create nouns: *-vchi, -chi: boshlovchi, tinglovchi, -iyat, -iyot: tahririyat, nashriyot; -lik: yangilik, noshirlik; -noma: xabarnoma, tahlilnoma; -uv: ko'rsatuv, globallashuv; -ma: qo'lyozma, bosma; suffixes which create adjectives*: *-iy, -viy: ommaviy, tanqidiy; -bop: tomoshabinbop, ommabop; -ar: ko'ngilochar; -li: raqamli, obrazli, tovushli;*

**Acronymy** is the process whereby a new word is formed from the initial letters of the constituent words of a phrase or sentence. Here we can see some examples of mostly used mass media acronyms in English:

*GIF - Graphics Interchange Format; YAHOO - Yet Another Hierarchical Officious Oracle; HTML - Hypertext Markup Language; WWW - World Wide Web; FAQ - frequently asked questions; QR - quick response; CD - compact disc; IP - Internet Protocol, BBC - British Broadcasting Corporation;*

However, in contrasting English mass media acronyms to Uzbek mass media acronyms we cannot distinguish them according to their pronunciation. They are pronounced as sequences of letters. Here are some examples from Uzbek mass media acronyms:

*OAV – ommaviy axborot vositalari; MTRK – milliy tele radio kompaniya; OAK – oliy attestatsiya komissiyasi; TVR – television and radio; TV – televizor; YOTRK – Yoshlar teleradiokompaniyasi; MTV – Milliy tv; MY5 – Mening Yurtim*

